

Foziljonova Yorqinoy

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 1- bosqich talabasi**JORJ ORUELLNING YASHIRIN HAQIQATI : “BILIMSIZLIK BU- KUCH”**

Annotatsiya: Jorj Oruellning «1984» asari totalitarizm, kuzatuv, tashviqot va shaxsiy erkinlikni yo'qotish mavzularini o'rganuvchi kuchli romandir. Oruell bizga doimiy kuzatuv ostidagi, mustaqil fikr yo'qotilgan va haqiqat manipulyatsiya qilinadigan jamiyatning dahshatli manzarasini taqdim etadi. Ushbu maqolada biz avtiritar va totalitar tuzumlar olib keladigan ulkan boshqaruv tuzumi umuman, yakka shaxs va yakka g'oya hukmronlik qilgan jamiyat fojealari haqida Oruellning badiiy ogohlantirishlarini tahlil qilishga harakat qilamiz, mafkura yakka shaxs, yagona siyosiy g'oyaga tayangan hokimiyat qo'lida qanchalar dahshatli qirg'in va qatag'on quroliga aylanishini ochib berishga urunamiz.

Kalit so'zlar: totalitarizm, kuzatuv, fikrni nazorat qilish, Newspeak, erkinlik, individuallik, siyosiy kuch, adolat, haqiqat manipulyatsiyasi.

Kirish. Jorj Oruell, asl ismi Eric Arthur Blair, 1903-yil 25-iyun kuni Hindistonning Motihari shahrida tug'ilgan. U Britaniya imperiyasi xizmatidagi amaldor oilasida dunyoga kelgan. Onasi bilan birga bolaligida Angliyaga qaytgan, otasi esa Hindistonda qolgan. Oruell Angliyadagi ta'lim tizimining qat'iy va sinfiy xarakteriga guvoh bo'lgan. U Sent-Kipr nomli maktabda tahsil olib, bu davrda jamiyatdagi tabaqalashtirish va bolalarga nisbatan adolatsizlik haqida ilk tasavvurlarga ega bo'ladi. So'ngra Eton kollejida o'qidi, bu davrda u iqtidorli, ammo mustaqil fikrlovchi va tengdoshlariga moslashishni istamaydigan shaxs sifatida tanilgan. Universitetga bormasdan, 1922-yilda Hindiston imperiya politsiyasiga xizmatga kiradi va Birmada besh yil ishlaydi. Birma davridagi tajribalari uning imperializmga bo'lgan tanqidiy munosabatini shakllantiradi. Bu davr hayoti va unda guvoh bo'lgan adolatsizliklar haqida yozadi. 1927-yilda u politsiya xizmatidan voz kechib, yozuvchilik yo'lini tanlaydi. Oruell o'zini yozuvchi sifatida shakllantirish uchun London va Parijda kambag'allikda yashaydi, turli og'ir ishlarni bajaradi. Ushbu hayotiy tajribalar asosida u “Parij va Londonda tubanlikda” (Down and Out in Paris and London) nomli kitobini yozadi. Aynan shu asarda u ilk bor “Jorj Oruell” taxallusidan foydalanadi, bu nom soddalik va inglizona ruhi bilan ajralib turardi. 1936-yilda Oruell Ispaniya fuqarolar urushida qatnashish uchun Ispaniyaga boradi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Oruell BBCning sharqiy xizmatida ishlaydi, biroq byurokratiya va senzura bilan to'qnash kelib, undan hafsalasi pir bo'ladi. U bu davrda ko'plab maqolalar yozadi, eng mashhurlari – “Siyosat va ingliz tili” (Politics and the English Language) hamda “Arslon va Unicorn” (The Lion and the Unicorn). Oruell jamiyatdagi haqiqat, tilda soxtalik va hokimiyatning manipulyatsion xususiyatlariga chuqur e'tibor qaratadi. Oruellning eng mashhur ikki asari – “Molxona” (Animal Farm) va “1984” romanidir. “Molxona” Sovet Ittifoqi tarixidagi inqilobdan keyingi totalitar tizimni satira shaklida tanqid qiladi. “1984” esa inson erkinligini yo'qotishga olib keladigan kuzatuv, senzura, tarixni o'zgartirish va til orqali ongni boshqarish haqida dahshatli distopik tasvirni beradi. Bu asarda u “Katta og'a”, “Fikr jinoyati”, “Yangi til” kabi tushunchalarni joriy etadi, ular hozirgacha siyosiy tahlil va ommaviy madaniyatda qo'llaniladi. Uning shaxsiy hayoti ham murakkab bo'lgan. 1936-yilda Eileen O'Shaughnessy bilan turmush qurgan. Ular 1944-yilda Richard ismli o'g'il asrab olishgan. 1945-yilda Eileen vafot etadi. Oruell uzoq yillar sil kasalligi bilan og'rigan.

1949-yilda Sonia Brounell bilan turmush quradi, ammo oradan bir necha oy o'tib, 1950-yil 21-yanvarda Londonda vafot etadi. Jorj Oruellning merosi g'oyatda katta. U o'z asarlari orqali hokimiyatni tanqid qilish, haqiqatni himoya qilish va erkinlik uchun kurashish g'oyalarini targ'ib

qilgan. Uning adabiy va siyosiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda, uning asarlari esa hanuz o'rganilmoqda, muhokama qilinmoqda va yangicha talqin etilmoqda.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Jorj Oruellning o'zbek kitobxonlari orasida mashhurlikka uchragan asari “1984” dir. U 1949-yili nashr qilingan. Bu roman “Newsweek” jurnali tomonidan tuzilgan “Insoniyat tarixidagi 100 ta eng yaxshi asar” reytingida 2-o'rinni, BBC tomonidan tuzilgan “200ta eng yaxshi asar” reytingida 8-o'rinni egallagan. Shu ma'lumotlarning o'ziyoz bu asarni o'qishga ishtiyoq paydo qiladi. Yozuvchi bu asarni dastlab “Amerikadagi so'ngi odam” deb nomlamochi bo'ladi. Keyin esa fikridan qaytib asar yozilgan sanadagi 4 va 8 sonlarini o'rnini aslashtirib “1984” deya nomlaydi.

Asar muallif tasavvur qilgan 1984-yildagi voqealarni tasvirlash bilan boshlanadi. Ushbu zamonda dunyo 3 ta yuqori qatlamga bo'lingan:

1. Okeaniya
2. Yevrosiyo
3. Sharqiy Osiyo

Asardagi voqealar Okeaniya hududiga kiruvchi London shahrida bo'lib o'tadi. Okeaniya hukumatida 4ta vazirlik : Tinchlik, Haqiqat, Boylik, va Muhabbat Vazirliklari faoliyat olib boradi. Vazirliklar bunday nomlanishiga qaramay, ular huddi shu nomga qarama-qarshi ishlaydi, ya'ni **Muhabbat vazirligida odamlarni qiynaydilar, Boylik vazirligi, qashshoqlikka javobgar, Tinchlik vazirligi urush olib boradi, Haqiqat vazirligi esa yolg'onlarni to'qib chiqaradi.**

Yuqori qatlamlar to'xtovsiz ravishda bir-biri bilan urush olib boradi. Bu zamonda tarix o'z tushunchasini butunlay yo'qotgan, nima rost-u, nima yolg'on bilib bo'lmaydi. Masalan, bugun bir qonun chiqarilib, bu 10 yildan beri mavjud edi deyish ham, bir insonni yo'q qilib, bunday inson bo'lmagan deyish ham mumkin. Haqiqat vazirligida barcha hujjatlarni qayta yozishadi. Kitoblar, gazetalar, jurnallar umuman, tarixni eslatuvchi barcha manbaalar yoqib yuboriladi va osonlikcha yana qaytadan bosib chiqarilaveradi. Hukumat xalqni butunlay boshqaradi. Nafaqat turmush tarzini, balki ongini ham nazorat qiladi. Insonlar ongini nazorat qilish uchun “FIKR” politsiyasi mas'ul bo'ladi. Asardagi 1984-yilda hamma hukumatdagi yagona siyosiy partiyaga bo'ysunishga majbur. Partiyaning fikrlarini inkor qilish mumkin emas, shaxsiy fikrga ega bo'lish, o'zaro insonlar orasida muhabbat bo'lishi, sevib turmush qurish man etilgan. U zamonda xalq 3 tabaqaga :

1. Yuqori hukumat odamlari
2. Partiya a'zolari
3. Prollar (oddiy xalq) ga bo'linadi.

Hukumat rahbari aslida real bo'lmagan ramziy “ KATTA OG'A” bo'lib, uning 3ta iborasi asarning bosh g'oyasi hisoblanadi:

1. Urush bu-tinchlik
2. Erk bu-qullik
3. Bilimsizlik bu kuchdir.

Bu iboralar va “ Katta og'a sizni kuzatmoqda” jumlasini istalgan joydan topish mumkin. Prollarni kuzatish uchun Oruellning tasavvuriga ko'ra teleekranlardan foydalaniladi. Yozuvchi bugungi kungi kuzatuv kameralari haqida oldindan bashorat qilgandek. Shaxsiy hayot degan narsadan butunlay voz kechilgan, hamma joyda hattoki, hojatxonalarda ham kuzatuv o'rnatilgan. Ikki inson ishdan tashqari holatlarda hech qachon suhbat qurmaydi, kulishmaydi, bir-birini mehmonga ham taklif qilmaydi. Bu zamonda boyib ketishning aslo iloji yo'q, chunki “BOYLIK” vazirligi maoshlarni shunchalik ustalik bilan taqsimlaydiki, oylik harajatlarning o'ziga bazor yetadi.

Asardagi asosiy qahramon Uinston Smit ismli 39 yoshli bir erkak. Londonda tug'ilgan va haqiqat vazirligining devonxonasida ishlaydi. U atrofidagi voqea-hodisalarni idrok qila oluvchi yagona odam. U jasorat ko'rastib, shaxsiy kundalik tutadi. Kulgilidir lekin, u davrda kundalik tutish ham mumkin emas. U nohaqliklar va o'zi norozi bo'lib yashayotgan jamiyat kirdikorlarini shu

kundalikka yozib boradi. Partiyaga qarshi chiqqanlarni fikr politsiyasi tutib olib ayamay jazolaydi.

Bosh qahramon o'zini partiya sodiq qilib ko'rsatsada, tarixni o'zgartirish mumkin emasligini juda yaxshi anglab yetadi. U asar davomida haqiqatni izlashga harakat qiladi. Vazirlikda Uinston bilan birga ishlaydigan O'Brayen ismli odam uning harakatlarini payqab qoladi. O'Brayen Uinstonga aytgan bir gapi bor: "Qorong'ulik yo'q joyda uchrashamiz!!!". Uinston bu gapni O'Brayen ham u kabi fikrlashiga dalil deb o'ylaydi. Voqealar rivojida u Juliya ismli qiz bilan tanishib qoladi. Juliya Uinstonga xat orqali u bilan uchrashmoqchi ekanini ma'lum qiladi. Uinston 39 yoshli bo'lsa Juliya 26 yoshli qiz. Shu sababli dastlab Uinston uning muhabbatiga ishonmaydi. Keyinchalik yashirincha uchrasha boshlashadi. Ular janob Charrington ismli shaxsning do'konidagi maxfiy xonada ham ko'rishishadi. Ular bu munosabat uzoqqa bormasligini va bir kun baribir fikr politsiyasi qo'lga tushishlarini sezishardi. Kunlardan birida O'Brayen Smitni o'zining xonadoniga taklif qiladi. O'zining uyida kuzatuvda turgan bir paytda bunday taklif Smitni esankiratib qo'yadi. U yerda teleekran yo'q deb o'ylab o'zi bilan Juliyani ham olib boradi. O'Brayen o'zini partiya qarshidek, erkin hayot tarafdoridek tutadi. Smitni o'z guruhiga qo'shishi lekin, politsiya qo'lga tushib qolsahech qanday yordam bera olmasligi haqida aytadi va hoyin deb e'lon qilingan Goldshteyinning kitobini Smitga beradi. Smit esa uyiga qaytib kelib uni astoydil o'qib chiqadi.

Asarning bu joyidan voqea-hodisalar ayanchli tus oladi. Qo'lga tushsa ham bir-birini sotmaslikka va'da bergan ikki oshiqni Fikr politsiyasi tutib oladi. Asirlar "MUHABBAT" vazirligiga olib boriladi. Smit o'zi qayerda ekanini ham, Juliya qayoqqa olib ketilganini ham bilmaydi. Keyinckalik biladiki o'zini do'st qilib ko'rsatgan O'Brayen aslida partiyaning sodiq a'zosi ekan. U 7 yildan buyon Uinstonni kuzatib yurganligi ma'lum bo'ladi. Qamoqxonada Smitni ajablantirgan yagona narsa u joy shunchalik yorug'ki, hozir kunni qaysi qismi ekanini ham bilib bo'lmaydi. O'Brayenning gapi to'g'ri edi: "Ular qorong'ulik yo'q joyda uchrashdilar!!!".

O'Brayen Smitni maxsus 101-xonada ayanchli tarzda qiynoqqa soladi. U sahnalarni qiynoqqa solish deb ta'riflab ham bo'lmaydi. Vahshiliklarni yozuvchi mahorat bilan tasvirlagan, o'quvchining eti jimirlamay qolmaydi. 101-xonada hamma qo'rqqan narsasini topadi. Smitni esa oxirgi qiynoq o'rnida kalamushlar kutib turardi. Barcha azoblarga dosh bergan Smit kalamushlarga kelganda yengiladi. U xonada miyasidagi oxirgi fikr va qalbida uchqunlagan sevgisidan ham ayriladi, chunki uni och qolgan kalamushlar to'dasiga yem qilmoqchi bo'lishadi. Jondan ortiq suygani Juliyani o'zining o'rniga qatl qilishlarini yolvorib so'raydi. Shundan so'ng u qamoqxonadan chiqariladi va ish joyiga qaytadi. Smit o'zligini butunlay yo'qotgan, katta og'aga tobe yana bir zombi.

Kunlardan bir kuni u Juliyani ko'chada ko'rib qoladi. Buni qarangki, ikkisi ham bir-biriga nisbatan hech nimani his qilmaydilar. Juliya ham Smitni sotib berganini, ular orasidagi munosabatlar hech qachon avvalgidek bo'lmasligini aytib xayrlashadilar.

XULOSA

"1984" asarini yozishdan oldin Jorj Oruell 2-jahon urushida Britaniya hukumati uchun BBCda propoganda targ'ibotchisi sifatida ishlagan. Ehtimol, propogandani yaqindan ko'rish uni "1984" asaridagi tanqidiy fikrlarni yozishga ilhom bag'ishlagandir.

Romanni yozayotgan Oruell sil kasalligi bilan kurashayotgan edi. Oxiri kasallikka yengilgan yozuvchi asar nashr qilinganidan 7 oy o'tib hayotdan ko'z yumadi. Smit kuzatuvga olingan bir vaqtda, real hayotda ham yozuvchi Britaniya hukumati tomonidan ta'qibga uchragan edi. O'ylab qarasa, "1984" bu yozuvchining avtobiografiyasi deyilsa ham haqiqatdan yiroq emas. Asarni mashhur qilgan iboralardan yana biri: "2*2=5". Aslida bu ibora Rossiya haqida bo'lib, u yerda kommunistik rejim, 5 yillik rejalarni 4 yil ichida bajarish maqsadida undan o'ziga xos ravishda foydalanilgan. Oruell BBC da propoganda targ'ibotchisi bo'lib ishlayotganda haqiqatdan ham 101-xona bor edi. Oruellning do'stlari va yaqinlarining fikriga ko'ra, Smitning sevgilisi Juliya obrazi yozuvchining ikkinchi rafiqasi Sonia Brounellga bag'ishlangan. Bu asar mashhurlikka erishishga qaramasdan, "Eng ko'p taqiqqa uchragan asarlar" top 10 taligiga kiradi.

Asar sobiq sovet davlatlarida ham ta'qibga uchragan va mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda ham nashr qilina boshlagan. 2018-yilga kelib esa Karim Baxriyev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. "1984" nomli film Hollewood kino aktyorlari tomonidan suratga olindi va 1984- yili ekran yuzini ko'rdi. Bu asar o'quvchini o'zi yashayotgan jamiyatga chetdan nazar tashlashga o'rgatadi. 1984-yil unsurlari hali hamon bizni tark qilmaganini ko'rishi va «Katta Og'a» kuzatuvida ekanini anglab yetadi. Asar to'laqonli g'arb mamlakatlarining turmush tarziga asoslangan bo'lib, bizning sharqona madaniyatga zid bo'lgan ko'plab obraz va voqeliklarni topishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu asarni o'zligini anglab yetgan, kalit so'zlar ortidagi asosiy mohiyatni tushunib yeta oladigan yosh egalariga tavsiya etgan bo'lardim. Bu asar orqali nafaqat o'z hayotida ro'y berayotgan hodisalarni, balki butun jahon siyosat olamida sodir bo'layotgan muammo va inqirozlarni ko'rishi, sabab va yechimlarni qahramonlar timsolidan izlashi mumkin. Men istardimki bu asarni tugallagan har bir kitobxon o'ziga savol bersinki : „Yevropadagi so'ngi inson singari men ham o'z jamiyatimning so'ngi odami emasmanmi?“

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Nazar Eshonqul. Mendan mengacha. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2014.]
2. [Otabek Tillayev. "Jorj Oruellning '1984' asari tahlili". Zamon.uz elektron nashri, 2021.]
3. [Karim Bahriyev. "Asarni avvalroq tarjima qilganingizda, biz boshqacha xalq bo'lardik". Xurshid Davron kutubxonasi, 2018.]
4. [George Orwell. 1984. Tarjimasi: Karim Bahriyev. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.]
5. [BBC arxivi. "George Orwell's Work in the BBC during World War II". BBC History, 2020.]
6. [Orwell Foundation. "George Orwell: A Life in Letters and Politics". orwellfoundation.com, 2022.]
7. [Jahon adabiyoti ensiklopediyasi. George Orwell haqidagi maqola. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.]
8. ["1984" filmi. Rejissyor: Michael Radford. Rol ijrochilari: John Hurt va Richard Burton. Hollywood, 1984.]

1.